


74

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

G.Sh.Rixsiyeva

2020 yil "28" 08



"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

2020 yil "28" 08

Ro'yxatga olindi: № BD5220100


2020 yil "28" 08

JURNALISTIKA NAZARIYASI (TARIXI VA TARAQQIYOTI)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi:	220000 – Jurnalistika va axborot
Ta'lim yo'nalishi:	5220100 – Jurnalistika : xalqaro jurnalistika (sharq tillari bilan)

Toshkent – 2020





Fan/modul kodi UJN224		O'quv yili 2020-2021	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Amaliy mashg'ulot	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yukla ma (soat)
	Jurnalistika nazariyasi (tarixi va taraqqiyoti)	60	30	60	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga Jurnalistika nazariyasi (tarixi va taraqqiyoti) fani bo'yicha bilim va tushunchalari kategoriyalarini, jurnalistika nazariyasi qonunlari va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, global darajadagi jurnalistik yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Jurnalistika nazariyasiga kirish. Jurnalistika ta'rifi, tasnifi Jurnalist kasbning o'ziga xos xususiyatlari. Jurnalistika so'zi fransuzcha "journal" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "kundalik" ma'nosini anglatadi. Jurnalistik ta'lim. Oliy ta'lim turlari. Jurnalistika-ommaviy axborot sohasi sifatida. Jurnalistikada universallashtirish va ixtisoslashuv. Zamonaviy jurnalistik tafakkurni shakllantirish. Ommaviy axborot vositalarining xolis faoliyat yuritishi to'g'risidagi mulohazalar 2-mavzu. Jurnalistika –Ommaviy axborot vositasi sifatida OAVning ommaviy axborot tabiati. jurnalistika ijodiy faoliyat sohasi sifatida o'rganilishi.jurnalist ommaviy axborot faoliyati sub'ekti sifatida. Jurnalist kasbining o'ziga xos xususiyatlari. Jurnalistik ta'lim. Jurnalistika maktabi. Jurnalistikaning muhim xususiyati ziyolilik, ma'rifatlilik har tomonlama ma'lumotlilik. Jurnalist kasbining muhim sifati teran aql, kirishimlilik (kommunikabellik, xushmuomalalik) hazil mutoibaga moyillik jurnalistning faoliyatida kutilgan imkoniyatni yaratishi. 3-mavzu. OAV vazifalari va funksiyalari Jurnalistika vazifalari va prinsiplari. Jurnalistikaning nazariy asoslari.				

Jurnalistika rivojida matbuot nazariyalarining o'rni. Jurnalistik faoliyat erkinligi. Matbuot erkinligi. O'zbekistonda jurnalistika ta'limi rivojlanishi. 4-mavzu. Matbuot – davlat bilan jamiyat o'rtasida axborot yetkazuvchi vosita Ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotida tutgan o'rni. Qonun asosida faoliyat ko'rsatuvchi matbuot va uning huquqiy asoslari. Ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirishning dolzarb masalalari. Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvor vazifa sifatida. Ijtimoiy mavzuning matbuotdagi talqini. Jurnallarda madaniy hayot muammolari. Qonun asosida faoliyat ko'rsatuvchi matbuot va uning huquqiy asoslari 5-mavzu. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi Turkistonda xususiy gazeta va jurnallarning paydo bo'lishi. Senzura,Telegraf agentliklari. Turkistonda matbuot yuzaga kelishi arafasida ijtimoiy-siyosiy vaziyat "Turkestanskije vedomosti", "Turkiston viloyatining gazet". Mahalliyaholining milliy ruhi, bukilmaz irodasi, mustaqillik to'g'risidagi fikrlari, orzu umidlarining paymol qilinishi haqidagi manbalarning gazetalar sahifalariga ko'chganligi XIX asrning oxiriga kelib Turkistonda dastlabki xususiy gazetalarining chop etilishi. Xududda rus tilida yana bir qancha gazeta va jurnallar nashr qilinganligi. 6-mavzu. Turkistonda milliy matbuot paydo bo'lishining ijtimoiy-siyosiy omillari Jurnalistik faoliyatning muayyan-siyosiy shart-sharoitlarda, turli ijtimoiy kuchlarning o'zaro munosabatlari jarayonida kechishi. "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Osiyo", va "Tujjor" gazetolari. Turkistondagi mahalliy aholi vakillari matbuotning qanchalik qudratli kuchga ega bo'lishini muayyan darajada tasavvur qilishi. Bu davrdagi gazeta mavzu doirasining xilma-xilligi. 7-mavzu. Turkistonda milliy matbuot taraqqiyotining yangi bosqichi Turkistonda milliy matbuot chiqarish bo'yicha 1906-1913 yillar oralig'idagi muayyan tajriba. O'sha davrdagi gazetalarining o'ziga xos xususiyatlari va mualliflari to'g'risidagi ma'lumotlar. "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" gazetolari. "Oyna" jurnali. Ulamolarning nashri "Al-Isloh" jurnali to'g'risidagi manbalar. 8-mavzu. Muvaqqat hukumati davri matboti Muvaqqat hukumat tashkil etilgach mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy axvol. Eski hukumat gazetolari ("TV", "TVG")ning taqdiri haqidagi ma'lumotlar. "Najot" gazetasining faoliyatiga – Muvaqqat hukumat nashri sifatidagi baholanishi. Turkiston mahalliy aholisining jamiyat va firqalar tashkil qilib mustaqillik uchun harakat qilgani haqida. "Al-Izoh", "Chayon", "Xurriyat", "Kengash", "Yurt" jurnallari	
---	--

	11.Глобальное экономическое регулирование: учебник. Под общей редакцией: В.Н.Зуева. М.: Магистр, 2013; 12.Хажиев Б.Д., Юсупов Р.А., Шарипов Қ.Б. "Глобал иктисодий ривожланиш" фани бўйича ўқув-услубий мажмуа.- Тошкент: ТДИУ, 2019, -132 бет. Axborot manbalari 13.http://www.Mediasprut.ru/media/media.shtml 14.http://journalism.Narod.ru/ 15.http://www.library.Cjes.ru/online/ 16.http://www.infohome-altai.ru/node/143 17.http://home.about.com/newsissues/ 18.www.popcornnews.ru 19.www.gazeta.ru 20.indiadaily.ru › kino › uill-smit-pribyl-v-indiyu-s-prodv.. 21.mk-turkey.ru lif agentstva-anadolu-posetoval
7.	Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil "29" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "28" 08 dagi 452- sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun mas'ul: f.f.n. M.K.Saliyev – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, "Tarjimonlik va xalqaro jurnalistika" kafedrasini o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: PhD X.X.Hamidov –Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika" kafedrasini mudiri PhD N.B. Xodjayeva –Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, "Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika" kafedrasini o'qituvchisi

	nazariyani uyg'unlashtirishni o'rganish bo'yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. An introduction to journalism by Richard Rudin & Trever Ibbotson. Printed in UK 2. Дўсқораев Б. Ташпўлатова Н. Мўминов Ф. Саидов Х. Нурматов А ва бошқалар. Журналистика Назарияси, тарихи ва тараққиёти. т. 1. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. 3. Салиев М.К. Замонавий Осиё Мамлакатлари журналистikasi. –Т.: “Навроз” нашрети, 2016. – Б.39-41. 4. Мўминов Ф.А. Журналистика ижтимоий институт сифатида. – Т.: УзМУ. 1998. Қўшимча адабиётлар 5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.–488 б. 6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.–488 б. 7. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 592 б. 8. Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики. Учебник МГУ.Икар. 2000. 9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси давлат бошқарувида рақамли иқтисодиёт, электрон ҳукумат ҳамда ахборот тизимларини жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПФ-5598-сон Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.12.2018 й., 06/18/5598/2313-сон) 10. Чумаков А.Н. Глобализация контуры целостного мира. М.: Проспект, 2009.–432 с.;

	materiallarini haqidagi ma'lumotlar. 9-mavzu. Jahon jurnalistikasi tarixi Antik davrda jurnalistikadan oldingi ko'rinishlar. Madaniy shakllanishning ilk bosqichlari. Miloddan avvalgi VII asrda Gresiyada shahar-davlatlarning qurilish davri. Afinada dolzarb ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalar ommaviy teatr namoyishlari. Publistikaning shakllanishida noqlik bilan birgalikda yozuvning rivojlanishi. Axborot almashishga bo'lgan birinchi ehtiyojlar. 10-mavzu. Iogann Gutenberg ixtirosi Iogann Gutenberggacha bo'lgan jurnalistikaning dastlabki ko'rinishlari. Jurnalistika paydo bo'lishining turli konsepsiyalarini ifodasi. O'sha davr mualliflar guruhi. Jurnalistik matn. Bog'lanish kanallari. Auditoriya. Gutenberg matbaachiligining tarixi Yevropada matbaachilikning tarqalishi. Germaniya. Buyuk Britaniya, Fransiya. Iogann Gutenbergga ixtirosining tarixiy ahamiyati. Jurnalistika tushunchasi ma'nolarining tarixiy tadriji. 11-mavzu. Jurnalistika prinsiplari Jurnalistika prinsiplari haqida tushuncha. Haqqoniylik, xolislik – jurnalistikaning eng muhim prinsiplari. Mafkura sohasida ijtimoiy-siyosiy faoliyatda, shuningdek, xalqaro jurnalistikaning prinsiplari “asosiy qarashlar, siyosiy e'tiqodlar”ni anglashi. Axborot modelining voqelikka adekvat (to'g'ri,mos) kelishi haqqoniylik prinsipining asosini tashkil etishi. 12-mavzu. Zamonaviy ma'rifat davri matbuoti Zamonaviy tipdagi gazetalarning haqiqiy salonamalari XVII asrga kelib rivojlandi. Yuridik yo'nalishdagi kitoblar oliy sud maxkamasi, siyosiy mazmundagi kitoblar davlat kotiblari, boshqa adabiyotlar esa Kenterberg arxieskopi va London yepiskoplari ko'rigidan o'tkazilganligi. Bosmaxonalarning tashkil etilishi. O'sha davr matbuotining rivojlanishi Buyuk fransuz inqilobidan keyin paydo bo'ldi 13-mavzu. XVIII asr Yevropa jurnalistikasi Angliya. Angliya jurnalistikasi nemis jurnalistikasidan kechroq paydo bo'lganligiga qaramay undan o'zib ketganligi. Buyuk Britaniyada qirolicha davridagi gazetalarga “shtempel” solig'ining joriy etilishi. Germaniyada XVIII asrning birinchi yarmida butun germaniya nemis matbuoti. XVIII asrning ikkinchi choragida Germaniya matbuotida ancha jonlanish paydo bo'lishi. Fransiya XVIII asrning boshlarida mamlakatda matbuotga oid keng ko'lamdagi avtoritar qonunchilik shakllanib ulgurganligi. Lyudovik XVI zamonida (1643-1715) matbuotni nazorat qilish borasidagi siyosati. 14-mavzu. XVIII asr Buyuk Fransuz inqilobi matbuoti. Inqilob va matbuot. XVIII asr fransuz inqilobining avj olishi. Fransuz inqilobi matbuotining demokratik an'analari XIX asrning birinchi yarmidan e'tiboran taraqqiyparvar jurnalistika tomonidan rivojlantirildi. Aksilinqilobiy matbuotning paydo bo'lishi. Jirondchilar bilan yakobinchilar o'rtasidagi kurash. Yakonbinchilar diktaturasi davridagi
--	---

	matbuot. Inqilob va demokratik matbuotning rivojlanishi. 15-mavzu. XVIII-XIX asrlar Amerika matbuoti Amerika matbuoti takrorlanmas va o'ziga xos tarixga ega ekanligi. Ilk matbaachilik ko'rinishlari. "Pablik okkyorensiz" – Shimoliy Amerikadagi birinchi gazeta. "Boston nyus letter" – ilk davriy nashr. Yangi jurnalistikaning tug'ilishi. Benjamin Franklin – jurnalist va tadbirkor. Partizan matbuoti va inqilob davri nashrlari. Zenger ishi va matbuot erkinligining himoyasi. Inqilob namoyandalari. Matbuotning inqilob davridagi roli. XIX asr boshidagi matbuot. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Jurnalistika nazariyasiga kirish. Jurnalistika ta'rifi, tasnifi 2. Jurnalistika – Ommaviy axborot vositasi sifatida 3. OAV vazifalari va funksiyalari 4. Matbuot – davlat bilan jamiyat o'rtasida axborot yetkazuvchi vosita 5. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi 6. Turkistonda milliy matbuot paydo bo'lishining ijtimoiy-siyosiy omillari 7. Turkistonda milliy matbuot taraqqiyotining yangi bosqichi 8. Muvaqqat hukumati davri matboti 9. Jahon jurnalistikasi tarixi 10. Iogann Gutenberg ixtirosi 11. Jurnalistika prinsiplari 12. Zamonaviy ma'rifat davri matbuoti 13. XVIII asr Yevropa jurnalistikasi 14. XVIII asr Buyuk Fransuz inqilobi matbuoti. 15. XVIII-XIX asrlar Amerika matbuoti Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq. IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Jurnalist kasbining o'ziga xos xususiyatlari 2. Jurnalistik ta'lim. 3. Oliy ta'lim turlari 4. Jurnalistika – ommaviy axborot sohasi faoliyati sifatida 5. Jurnalistik prinsiplar 6. OAVning ommaviy axborot tabiati 7. Jurnalistika ijodiy faoliyat sohasi sifatida
--	--

	8. OAV funksiyalari va matbuot erkinligi 9. Jurnalistikaning nazariy asoslari 10. Jurnalistika faoliyati erkinligi 11. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi 12. Turkistonda matbuotning yuzaga kelishi 13. Turkistonda xususiy gazeta va jurnallarning paydo bo'lishi. Senzura. Telegraf agentliklari 14. Turkistonda milliy matbuot paydo bo'lishining ijtimoiy-siyosiy omillari. Turkistonda milliy matbuot taraqqiyotining yangi bosqichi 15. Jahon jurnalistikasi tarixi 16. Antik davrda jurnalistikadan oldingi ko'rinishlar 17. Iogann Gutenberg ixtirosi 18. XVII asr ingliz inqilobi pulisistikasi 19. XVIII Yevropa jurnalistikasi 20. XVIII-XIX asrlar Amerika matbuoti 21. XX asrning birinchi yarmida jahon matbuoti 22. Matbuot – davlat va jamiyat o'rtasida axborot yetkazuvchi vosita 23. Ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotida tutgan o'rni. 24. Qonun asosida faoliyat ko'rsatuvchi matbuot va uning huquqiy asoslari 25. Jurnalistikada kompromiss, konsensus, senzura masalalari 26. Ommaviy axborotning xarakteri, mohiyati, madaniy-tashkiliy vazifalari 27. Xolislik va haqqoniylik jurnalistikaning asosiy prinsiplari sifatida 28. OAVda axborot xavfsizligi masalasi 29. Jahonning yetakchi jurnallari muvaffaqiyati omillari (Turkiya, Hindiston misolida) 30. Jurnalistika – ommaviy axborot faoliyati soha sifatida Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Jurnalistika nazariyasi. Tarixi va taraqqiyoti fani tushunchasi va asoslari, ijtimoiy rivojlanish omillari, jurnalistik nazariyalari haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti asoslarini o'rganish, jurnalistik nazariya qonuniyatlari, asosiy tushunchalar, jurnalistika nazariyasida, tarixida va taraqqiyotida davrlar osha rivojlanib kelayotgan jurnalistik ta'limotning xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • talaba zamonaviy global rivojlanish davrida fanning o'ziga xoslik tomonlarini tahlil qilish usullarini qo'llash, jurnalistika amaliyotiga